

E'tibor va e'tirof nigohida

"Har bir millat o'z ona tilini va adabiyotini saqlaydigan hifzi lison bo'lmos'i kerak"¹. Ona tilining muhimligi, millat shakllanishida tilning beqiyos o'rni va ahamiyati haqida juda uzoq gapirish, dunyo allomalaridan behisob iqtiboslar keltirish mumkin. Masalan, "amerikalik olim Benjamin Uorif shunday degan: "Agar Nyuton ingliz bo'lmaganda va inglizcha tafakkur qilmaganda uning yaratgan qonuni sal boshqacharoq bo'lar edi".²

Insonning o'z jamiyatidagi, millatidagi alohida bir o'ringa ega bo'lgan vakil sifatida rivojlanishi uchun uning ma'naviy quvvati - ona tilida ahamiyat katta. Dunyoga kelib, dunyo deb sanaganimiz: oila, jamiyat, mamlakat, butun olam haqidagi kichik bilimlardan boshlab to buyuk tafakkur mahsullarigacha ongga, vujudga qabul qilish vositasi, albatta, til - ona tili. Milliy til sofligisiz, faolligisiz biror milliylik jabhasini taraqqiy ettirib bo'lmaydi. Siyosiy tomonidan ham, ijtimoiy yoki iqtisodiy sohada ham davlat tilining o'rni muhim ekan, uning mavzusi har doim e'tirof va e'tibor markazida. Xavfsizligi ham. O'zbek tiliga davlatni birlashtiradi, davlatdagilarni yagona milliy maqsad atrofida jipslaydi, degan g'oya ostida aslan o'ylab, hisoblab, qonuniy ustunlari qatorida bu birlamchi vositasiz, davlatchilikni to'la shakllantirib bo'lmasligini yaqqol anglagan holda ilk bor davlat timsollari tasdig'idan oldin dastlab bu qaror yuzaga keltirilgan. Hozirgi kundagi muhim tuzilma- davlat tilini rivojlantirish departamentining vazifalari yurtda davlat tili bilan bog'liq masalalar ustida shug'ullanish ekani ma'lum. Milliy til egalari - xalq, millatning biz a'zolari bu tilning faol, jonkuyar tashabbuskori bo'lish kerakligini anglagan holda buni amalda ko'rsatishga tutinishimiz talab etiladi. Chunki davlat tili - uning buyuk tarixi, muazzam kelajagini aks ettiradigan

muhim qadriyati. O'zbek tiliga to'liq va qat'iy dahldorligimizni aqlan, ham ma'nан anglagan holda uning qonuniyatlarini ijro etish va faollik ko'rsatish biz uchun muhim. Tilga doim himoya, parvarish lozim. Uning taraqqiyoti shunga bog'liq. "Savol tug'iladi: tilni qanday parvarishlash kerak? Nima qilib tilni himoya qilsa bo'ladi? Men aminmanki, ona tilimizni himoya qilish uchun uni teran o'rganishdan boshlamog'i lozim. Faqat tilshunoslargina emas, yozuvchilar yoxud jurnalistlalargina emas, hamma, butun xalq, butun millat o'z tilining jamiki boyliklari va imkoniyatlaridan samarali istifoda qilmog'i uchun juda boy lug'at zaxirasiga ega bo'lmog'i, imkonи boricha so'zlarning ildizini, kelib chiqishini zamон va makonidagi sarguzashtlarini bilmog'i kerak".³

Tilning sofligini saqlash uchun muassasalarda, jumladan ta'limning ilk ostonalaridayoq, ilk bosqichlaridayoq o'quvchilarning og'zaki va yozma nutqi sofligiga ehtiyyotkorona yondashilsa, tilning ilmiy, ham ma'naviy qonuniyatları haqida savodxonligi shakllantirilsa, til, qolaversa, nutq buzilishining oldini oladigan to'siqlardan biriga ega bo'linadi. Tilga mehr, avvalo, ruhda bo'lishi kerak, ongga singdirilishi kerak. Busiz tilning taraqqiyoti uchun xizmat qilib bo'lmaydi, albatta.

To'g'riki, chet tillarini o'rganish dunyonи kengroq bilishga yordam beradi. Garchi qaysi soha vakili bo'lmasin, ona tilida to'liq gapirishni eplay olmas holda boshqa bir xalq tilida nutq irod etishi faxrlanarlik hol emas. Zamон taqozosi bilan qaysidir qo'shimcha chet tilini bilmaslik kamchilik deb baholanar, biroq o'z davlat tilini, millatning tilini bilmasmik har qaysi makon- u zamonda ham nuqson sanaladi, nazarimda.

O'zbek tilining muhim, spetsifik negizlaridan bo'lgan o'zbek alifbosi haqida hozirgi kunda turli qarashlar mavjud. Nazarimizda, o'zbek leksikografiyasidagi so'zlar tilning mulki sanalar ekan, xalqqa singib borgan, borayotgan alifboni ham til mulki sanasak ijobiylidан bo'ladi. Alifboda muammolar chiqaradigan murakkabliklar bordir balki, "x" va "h" grafemalari masalalaridir, bu vositalarning har birida alohida mohiyat, vazifa mavjud. (Misol qilsak, "hur" so'zi "ozod, "erkin" degan ma'nolarni

anglatsa, (yana bir shakldosh "hur" shahlo ko'z ma'nosida, qizlarga nisbatan) "xur" bu taqlid so'z, "xur- xur", "xurrak" so'zlari qismi. Yoki boshqa masala bo'lsin, o'zgartirmasak bo'lmaydi, deyishga turtki bo'ladigan o'tkir sabab bormi? Jahonga keng tarqalgan boshqa tillarda murakkabliklar mavjud, ammo o'rganilishi davom etyapti. O'zgarishsiz taraqqiyot bo'lmaydi, degan rejani alifboga nisbatan qo'llasak, alifboninggina orqasida qancha sinonimlar, paronimlar kabi lekisik ko'rinishlar, til boyligi kabi kommunikativ sifatlar turibdi. Ular o'zgarishi natijasida ko'plab til qoidalari o'zgarishga yuz tutadi. Hozir uni yangilasak, ma'lum vaqt siljigach, zamon talabi deb yana o'zgartirishga tushilsa-chi. Bugun o'zgardimi, yana bo'lishi mumkin bu hodisa, shunday ekan, tilimiz qachon yagona tartib, yagona taraqqiyot yo'lidan boradi? Islohotlar taraqqiyotga yo'naltirilishi bu isbotli, ham quvonarli. Ammo alifboni qayta isloh qilish, yana sohalarga keng yoyish, tajriba va moslashuv vaqtłari, sekinlashuv jarayoniga olib keladi.

Tilimiz tarkibidagi murakkabliklardan kechish emas, chuqur o'rganish va buni targ'ib qilish, bu orqali ma'lum me'yoriy qoidani yaratish, maxsus qat'iy imlo lug'atini tartiblab chiqish foydalidir. Ona tilining bunday qirralarini biz o'rganmasak, biz qadrlamasak, bu mas'uliyatni boshqa el vakili bajarishga tutinmas. Zero, murakkab ko'ringan ana shunday jihatlari bilan ham u serjilo, sermohiyat. Ko'proq bilishni, idrok etishni, mehnatni talab qiladi.

Til e'tibor va e'tirof markazida. O'zbek tiliga dahldor deb hisoblangan har vakil, inson bu yo'lda o'z qarashiga, aytay degan muayyan fikriga ega. Bu borada nazarimizda mavjudlangan ayrim fikr-munosabat yozildi. Ulkan pog'onalardan o'tgan shaxslar so'zidan ham kiritdik. Yana bir jumladan, "Millatning o'z tili bor ekan, uning dunyoga aytar so'zi ham bordir. Davlat chegaralari qanchalik himoyaga muhtoj bo'lsa, davlat ma'naviy boyliklari ham shu qadar himoya talab etadi". Til ma'naviyatimizni, ma'nomizni oyna yanglig' aks ettirar, avlodlar o'tsidagi bog'ni, bog'liqlikni o'zida ko'rsatar, moddiyat sohasi, siyosiy jarayonlarda asosiy vosita sanalar, jahon minbarlarida o'zligimizni, qaysi

yurtga xosligimizni yaqqol anglatar, umuman butun bir xalq ekanimizni ifodalar va yorug' istiqbolga bo'lgan umid, harakatlarimizga chorlov vazifa - funksiyalarini bajarar ekan, demak bu ona tilining taqdirimizga bog'liqligidir.

1. Abdulla Avloniy " Turkiy Guliston yoxud axloq", 18- bet. <http://ferlibrary.uz> sayti.
2. Ozod Sharafiddinov. "Ma'naviy kamolot yo'llarida" 3.252. 33- bet. Toshkent"Ma'naviyat" - 2001. WWW.ziyouz.com kutubxonasi.
3. Vahob Rahmonov(adabiyotshunos)ning Alisher Nazar bilan "Til- ruhimiz tarjimoni" suhbatidan. Saviyauz.sayti.